

**O‘zbekiston Respublikasi hududiy-markaziy dehqon bozorlarida, alohida turdagi
oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari to‘g‘risida
MA’LUMOT***



*(Narxlarni ro‘yxatga oluvchi tomonidan kuzatuv o‘tkazilgan kun va vaqtdagi narx-navo qayd etilib, bunda vaqt va joyiga qarab narxlar o‘zgarib turadi. Mazkur ma’lumotlarning shakllanishi jarayonida, faqatgina dehqon bozorlari hududidagi oziq-ovqat mahsulotlari narxlari hisobga olingan (**supermarket, minimarket, do‘kon**lardagi narxlar inobatga olinmagan).*

Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan, mamlakatimiz hududlaridagi markaziy dehqon bozorlarida, **2022- yil 30- avgust kuni** o‘tkazilgan kuzatuv natijalari bo‘yicha, alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ldi:

Suyakli mol go'shti
49 500 so'mdan 78 000 so'mgacha (kg)



Kuzatuv natijasiga ko'ra, 1 kg suyakli mol go'shtining minimal narxi, Toshkent shahrining "Qo'yliq dehqon bozori"dagi arzonlashtirilgan go'sht rastalarida qayd etilgan (49 500 so'm).

Suyakli mol go'shtining maksimal narxi esa, Toshkent shahrining "Farhod dehqon bozori"da kuzatildi (xususiy tadbirkorlar rastalarida 78 000 so'm). Shu bilan birga, mazkur bozorda tashkil etilgan arzonlashtirilgan rastalarda mol go'shti minimal 55 000 so'mga sotilmoqda.



Qo'y go'shti
58 000 so'mdan 90 000 so'mgacha (kg)



Qo'y go'shtining minimal narxi (58 000 so'm) kuzatuv natijasiga ko'ra, Chirchiq shahrining "Chirchiq dehqon bozori", Toshkent shahrining "Farhod dehqon bozori"dagi arzonlashtirilgan rastalarda ro'yxatga olingan.

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining "Oloy dehqon bozori" va "Farhod dehqon bozori"da (xususiy tadbirkorlar rastalarida 90 000 so'm) kuzatildi. Shuningdek, ushbu bozorlarda qo'y go'shtini minimal 58 000 – 60 000 so'mga ham xarid qilish mumkin.



Kartoshka

2 000 so‘mdan 6 000 so‘mgacha (kg)

Kuzatuv natijalariga ko‘ra, Namangan shahrining “Namangan chorsu dehqon universal bozori”da tashkil etilgan arzonlashtirilgan savdo rastalarida sotilayotgan yirik bo‘lmagan kartoshkaning narxi minimal narx sifatida (2 000 so‘m) qayd etilgan.



Shu bilan birga, Toshkent shahrining “Mirobod dehqon bozori”da sotuvdagi saralangan kartoshkaning narxi maksimal narx sifatida (6 000 so‘m) qayd etildi. Ushbu bozordagi arzonlashtirilgan rastalarda sotilayotgan kartoshkani minimal 3 500 so‘mdan xarid qilish mumkin.

Piyoz

2 000 so‘mdan 5 000 so‘mgacha (kg)



Piyoz mahsulotining minimal narxi kuzatuv natijasiga ko‘ra, Andijon shahrining “Yangi bozor dehqon bozori”, Namangan shahrining “Namangan chorsu dehqon universal bozori” va Chirchiq shahrining “Chirchiq dehqon bozori”da (2 000 so‘m) ro‘yxatga olindi.

Maksimal narx sifatida esa, Nukus shahrining “Nukus dehqon bozori” va Toshkent shahrining “Mirobod dehqon bozori”da sotuvda bo‘lgan saralangan piyozning narxi kuzatildi (5 000 so‘m). Shuningdek, mazkur bozorlarda piyozni minimal 2 500 – 3 000 so‘mga ham xarid qilish mumkin.



Sabzi

1 000 so‘mdan 6 000 so‘mgacha (kg)

Sabzi mahsulotining minimal narxi kuzatuv natijasiga ko‘ra, Nukus shahrining “Nukus dehqon bozori”, Namangan shahrining “Namangan chorsu dehqon universal bozori”da (1 000 so‘m) qayd etilgan. Shuningdek, mazkur bozorlarda sabzini maksimal 2 500 – 4 000 so‘mga ham xarid qilish mumkin.



Sabzi mahsulotining maksimal narxi esa, Toshkent shahrining “Mirobod dehqon bozori”da 6 000 so‘m darajasida qayd etilgan. Ushbu bozorda sabzining minimal narxi 2 500 so‘mni tashkil etdi.

Tuxum

7 000 so‘mdan 15 000 so‘mgacha (10 dona)



Kuzatuv natijasiga ko‘ra, Navoiy shahrining “Saxovat bozori”, Urganch shahrining “Urganch markaziy dehqon universal bozori”da arzonlashtirilgan tuxum rastalaridagi mayda tuxumning narxi minimal narx sifatida qayd etildi (7 000 so‘m).

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining “Farhod dehqon bozori”da qayd etilgan (yirik saralangan tuxum 15 000 so‘m). Shuningdek, mazkur bozorda 10 dona mayda tuxumning minimal narxi 8 000 so‘mni tashkil etgan.



Guruch

5 000 so‘mdan 25 000 so‘mgacha (kg)

Kuzatuv natijalariga ko‘ra, guruch mahsulotining minimal narxi Nukus shahrining “Nukus dehqon bozori” (“Nukus-2” navli guruch, 5 000 so‘m) qayd etilgan.



Maksimal narx esa, Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori”da 25 000 so‘mdan kuzatildi (“Lazer” navli guruch). Shu bilan birga, ushbu bozorda guruchning minimal narxi 8 000 so‘mni tashkil etgan.

O‘simlik yog‘i

16 000 so‘mdan 30 000 so‘mgacha (litr)



O‘simlik yog‘ining kuzatuv natijasiga ko‘ra, minimal narxi Jizzax shahrining “Jizzax markaziy dehqon bozori”, Namangan shahrining “Namangan chorsu dehqon universal bozori” va Guliston shahrining “Guliston dehqon bozori”da (mahalliy paxta yog‘i 16 000 so‘m) kuzatildi. Shuningdek, mazkur bozorlardagi xususiy tadbirkorlar rastalarida o‘simlik yog‘ini 20 000 – 24 000 so‘mga ham xarid qilish mumkin.

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori” va “Mirobod dehqon bozori”da (kungaboqar yog‘i 30 000 so‘m) kuzatildi. Shuningdek, mazkur bozorlarda o‘simlik yog‘ini minimal 18 055 so‘mga ham xarid qilish mumkin.



Shakar

12 000 soʻmdan 17 000 soʻmgacha (kg)



Shakar mahsulotining kuzatuv natijasiga koʻra minimal narxi Nukus shahrining “Nukus dehqon bozori”, Andijon shahrining “Yangi bozor dehqon bozori”, Buxoro shahrining “Buxoro markaziy dehqon bozori”, Jizzax shahrining “Jizzax markaziy dehqon bozori”, Qarshi shahrining “Qarshi dehqon oziq-ovqat bozori”, Navoiy shahrining “Saxovat bozori”, Samarqand shahrining “Siyob dehqon bozori”, Guliston shahrining “Guliston dehqon bozori”, Chirchiq shahrining “Chirchiq dehqon bozori”, Fargʻona shahrining “Markaziy dehqon bozori” va Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori”, “Mirobod dehqon bozori”, “Eski joʻva dehqon bozori”, “Farhod dehqon bozori” va “Qoʻyliq dehqon bozori”da arzonlashtirilgan rastalarda (12 000 soʻm) qayd etildi.

Maksimal narxi esa, Toshkent shahrining “Oloy dehqon bozori”da (17 000 soʻm) kuzatildi. Shuningdek, mazkur bozorda shakarni minimal 12 000 soʻmga ham xarid qilish mumkin.



Markaziy dehqon bozorlari kesimidagi batafsil maʼlumotlar quyidagi koʻrinishda taqdim etilgan:

**O‘zbekiston Respublikasi hududiy markaziy dehqon bozorlarida alohida turdagi
oziq-ovqat mahsulotlarining minimal-maksimal narxlari to‘g‘risida
MA’LUMOT***

2022- yil 30- avgust holatiga (1 kg so‘mda)

№	Bozorlar nomi		Suyakli mol go'shti	Qo'y go'shti	Kartoshka	Piyoz	Sabzi	Tuxum (10 dona)	Guruch	O'simlik yog'i (1 L)	Shakar
1.	Nukus shahar “Nukus dehqon bozori”	min	50000	68000	3000	2500	1000	8000	5000	18000	12000
		max	68000	68000	5000	5000	4000	12000	16000	22000	15000
2.	Andijon shahar “Yangi bozor dehqon bozori”	min	50000	65000	2500	2000	2000	8000	7500	19000	12000
		max	70000	80000	5000	3500	3000	11000	23000	24000	15000
3.	Buxoro shahar “Buxoro markaziy dehqon bozori”	min	62000	59000	3000	3300	1800	8000	6500	18500	12000
		max	72000	65000	4000	4500	2500	11000	22500	27000	15000
4.	Jizzax shahar “Jizzax markaziy dehqon bozori”	min	55000	60000	2500	2500	2000	9500	9000	16000	12000
		max	75000	75000	4500	4000	2500	11000	20000	24000	15000
5.	Qarshi shahar “Qarshi dehqon oziq-ovqat bozori”	min	55000	70000	2700	2300	2500	8000	6000	17000	12000
		max	65000	75000	3200	2500	3200	9000	16000	22000	12000
6.	Navoiy shahar “Saxovat” bozori	min	50000	60000	2800	2200	2000	7000	6000	17000	12000
		max	75000	75000	4000	4000	3000	11000	18000	24000	15000
7.	Namangan shahar “Namangan chorsu dehqon universal bozori”	min	52000	75000	2000	2000	1000	8000	6000	16000	13500
		max	65000	80000	4000	4000	2500	10000	18000	20000	15000
8.	Samarqand shahar “Siyob dehqon bozori”	min	56000	65000	3000	3000	2500	8500	7000	17000	12000
		max	65000	72000	4500	4500	3200	10500	15000	23000	15000
9.	Termiz shahar "Yashil dunyo markaziy dehqon oziq-ovqat bozori"	min	65000	72000	3500	3000	2500	9000	7000	18000	13000
		max	75000	77000	5000	4500	3000	11000	22000	23000	16000
10.	Guliston shahar “Guliston dehqon bozori”	min	55000	65000	2500	3400	1500	7500	6000	16000	12000
		max	70000	80000	4000	4500	2500	11000	15000	22400	15000
11.	Chirchiq shahar “Chirchiq dehqon bozori”	min	55000	58000	2500	2000	2000	10000	6500	18888	12000
		max	68000	78000	5000	4500	4000	13000	18000	24000	14000
12.	Yangiyo'l shahar “Ixtisoslashgan Yangiyo'l shahar dehqon bozori”	min	70000	80000	3500	3000	3500	9500	8000	19000	13000
		max	75000	82000	4000	3500	4000	11000	20000	22000	14000
13.	Farg'ona shahar “Farg'ona shahar markaziy dehqon bozori”	min	55000	65000	3000	2500	2500	8000	8000	16800	12000
		max	70000	78000	4000	4000	3500	11000	18000	22500	15000
14.	Urganch shahar “Urganch markaziy dehqon bozori”	min	55000	75000	3000	2500	2000	7000	7500	20000	14000
		max	75000	80000	5000	4000	3500	12000	22000	22000	14000
15.	Toshkent shahar “Eski jo'va dehqon bozori”	min	50000	60000	3500	3500	3500	9000	6000	19000	12000
		max	70000	80000	4500	4000	4000	12500	22000	23000	14000
16.	Toshkent shahar “Oloy dehqon bozori”	min	55000	60000	3800	3500	2500	9000	8000	18055	12000
		max	75000	90000	4500	4500	3000	13000	25000	30000	17000
17.	Toshkent shahar “Farhod dehqon bozori”	min	55000	58000	3000	2500	2500	8000	7500	19300	12000
		max	78000	90000	5000	4000	4500	15000	22000	25000	15000
18.	Toshkent shahar “Qo'yliq dehqon bozori”	min	49500	60000	3000	3000	2000	8000	6500	19000	12000
		max	70000	82000	5000	4000	3500	12000	22000	24000	16000
19.	Toshkent shahar “Mirobod dehqon bozori”	min	50000	60000	3500	3000	2500	9000	8000	18055	12000
		max	70000	85000	6000	5000	6000	12000	22000	30000	12000

*) Alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlarining **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlari kuzatuvi, statistika organlari tomonidan viloyatlarning hududiy markazlari, Nukus hamda Toshkent shaharlarida **ALOHIDA TANLAB OLINGAN** markaziy **DEHQON BOZORLARI** kesimida amalga oshiriladi.

Hududlarning markaziy dehqon bozorlaridagi **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlarni ro'yxatga olishda, dehqon bozori bo'lmagan savdo obyektlaridagi narxlar kuzatuvga olinmaydi (minimarketlar, supermarketlar, do'konlar va hokazo).

Kuzatuvning **MAQSADI**, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan, Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq, asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari orasidagi **NARXLAR DIAPAZONINI ANIQLASHDAN IBORAT**.

Shu asnoda ro'yxatga olingan narx ma'lumotlaridan o'rtacha iste'mol narxlari darajasini aks ettirish yoki uni baholash, shuningdek, narxlar o'zgarishi dinamikasini tavsiflashda foydalanish tavsiya etilmaydi.

Muayyan hududning markaziy dehqon bozorida, aniq turdagi tovar bo'yicha ro'yxatga olingan **MINIMAL** yoki **MAKSIMAL** narxlar, respublika bo'yicha shu hududda aynan ushbu mahsulotning o'rtacha narxlari darajasini **MINIMAL** yoki **MAKSIMAL** deb hisoblash uchun **ASOS BO'LMAYDI**.

Dehqon bozorlaridagi **MINIMAL** va **MAKSIMAL** narxlar darajasiga, assortiment yoki hududiy siljishlar, shuningdek, kuzatuv o'tkazish vaqtida bozorlardagi mavjud sharoitlar ta'sir etishi mumkin.

Narxlar kuzatuv amalga oshirilayotgan vaqtda qayd etiladi va ma'lumotlarni to'plash vaqti, sanasi hamda joyi o'zgarishiga qarab ham, narxlarning tebranish holatini ko'rish mumkin.